



UDK: 373.3 (575.1)

## XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISH IJTIMOIY ZARURAT SIFATIDA

**M.Asqarova**

*NamDPI dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)*  
*+998939424255*

**Annotatsiya:** Maqola "Xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish ijtimoiy zarurat sifatida" xalqaro baholash tizimlarining rivojlanishi va ularning ijtimoiy ahamiyatini yoritadi. Ushbu maqolada xalqaro baholashning ta'lim tizimidagi o'rni va uning ijtimoiy rivojlanishga qanday hissa qo'shishi haqida muhokama qilinadi. Baholash tizimlari nafaqat ta'lim sifatini o'lchash, balki ijtimoiy tenglikni ta'minlash, resurslarni samarali taqsimlash va mamlakatlararo taqqoslash imkoniyatini yaratadi. Xalqaro baholash dasturlari, masalan, PISA (Programme for International Student Assessment), o'quvchilarning bilim darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, davlatlar uchun ta'lim siyosatini yaxshilashda, ta'lim sohasidagi kamchiliklarni aniqlashda yordam beradi.

**Kalit so'z:** Xalqaro baholash, ta'lim tizimi, PISA, ijtimoiy zarurat, ta'lim sifatini baholash, global rivojlanish, taqqoslash, ta'limda barqarorlik, baholash dasturlari.

## МЕЖДУНАРОДНОЙ ОЦЕНКИ ПРОГРАММЫ КАК СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ

**Аннотация:** Статья «Использование международных оценочных программ как социальная необходимость» освещает развитие международных оценочных систем и их социальную значимость. В статье обсуждается роль международной оценки в образовательной системе и то, как она влияет на социальное развитие. Оценочные системы не только измеряют качество образования, но также создают возможности для обеспечения социальной справедливости, эффективного распределения ресурсов и международного сопоставления. Международные оценочные программы, такие как PISA (Программа международной оценки учащихся), играют важную роль в оценке уровня знаний учащихся и помогают государствам улучшать образовательную политику и выявлять недостатки в сфере образования.

**Ключевые слова:** Международная оценка, образовательная система, PISA, социальная необходимость, оценка качества образования, глобальное развитие, сопоставление, стабильность в образовании, оценочные программы.



## USING THE INTERNATIONAL EVALUATION PROGRAM AS A SOCIAL NECESSITY

**Annotation:** The article “Using International Assessment Programs as a Social Necessity” highlights the development of international assessment systems and their social significance. It discusses the role of international assessments in the education system and how they contribute to social development. Assessment systems not only measure the quality of education but also provide opportunities for ensuring social equity, effective resource distribution, and international comparison. International assessment programs, such as PISA (Programme for International Student Assessment), play a crucial role in evaluating students' knowledge levels and help countries improve educational policies and identify shortcomings in the education sector.

**Keywords:** International assessment, education system, PISA, social necessity, quality of education assessment, global development, comparison, educational stability, assessment programs.

### KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarning ta‘lim-tarbiyasiga har tomonlama e’tiborni kuchaytiradi. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarni ijodiy g‘oyalari va yaratuvchanligini har tomonlama qo’llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish borasida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, milliy monitoring tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish borasidagi amalga oshirilayotgan ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsad yo‘lida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qaroriga asosan, O‘zbekiston



Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lism sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida "Xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish" Milliy markazi tashkil etildi. Ta'lism siyosatini ishlab chiqish jarayonida xalqaro standartlashtirilgan baholash darajalari milliy va xalqaro miqyosda tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili;**

Xalqaro miqyosda muntazam baholash orqali ta'lism tizimi milliy monitoringi tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarni yanada kengroq kontekstda yaratish maqsadida o'zaro kelishuvga asosan ushbu g'oya taklif etilgan. 1990-yillarga qadar Evropa davlatlarining aksariyatları ta'lism oluvchilarining egallagan bilim va ko'nikmalarini monitoring qilishda milliy testlardan foydalanganlar. 1990-yillarda o'nta mamlakat standartlashtirilgan baholashni joriy qildilar va 2000-yillarning boshidan beri yana mamlakat shu usulni qo'lladilar. 2009-yillarda faqat beshta Yevropa davlatlari ta'lism tizimida o'quvchilarining milliy baholari yo'q edi. Ta'lism siyosati sohasidagi ushbu xalqaro standartlashtirilgan baholarning ta'siri, yaratilish nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega yangi bilim, o'zgarishlar baholash siyosati va milliy ta'lism siyosatiga tashqi ta'sir yanada kengroq bo'ladi.

A.Monsning ta'kidlashicha, keng ko'lamli xalqaro baholashlar natijasida hosil bo'lgan ma'lumotlar o'qish shartlaridan tortib, ma'lumot qabul qilish siyosatiga qadar ta'lism tizimlarini inventarizatsiya qilish va taqqoslashni misli ko'rilmagan miqyosda amalga oshirdi. Xalqaro standartlashtirilgan baholash ma'lumotlari ta'lism tizimidagi yoki uning ichidagi sabab omillarini tatbiq qilishda foydali bo'lishi mumkin.

Bundan ko'rindaniki, ta'lism samaradorligi ko'rsatkichlarini qiyosiy statistik tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan tipologiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi va shu bilan turli xil siyosiy tanlov natijalari aniqlandi (1-jadvalga qarang).

### **Xalqaro baholash dasturlarining nomlanishi va mazmuni**

T/r	Xalqaro dasturlar nomi	Mazmuni
1.	PIRLS – (Progress in International Reading and Literacy Study)	boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini

		baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi.
2.	PISA – (The Programme for International Student Assessment )	15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi test.
3.	TIMSS-(Trends in International Mathematics and Science Study)	15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash dasturi.
4.	EGRA va EGMA	boshlang'ich sinflarda o'qish hamda matematika bo'yicha ko'nikmalariga baho beradi.
5.	STEAM	ta'lim dasturlari bo'yicha kengaytirishga qaratilgan asosiy kompetensiya, bilish (kognitiv) faoliyati usullarini egallash, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va o'quv faoliyatidagi mustaqillik.

PIRLS – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Mazkur xalqaro dastur ta'lif sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi axborotlarni xalqaro miqyosda taqqoslashga imkon beruvchi, o'qish va o'qitish sifatini yaxshilash maqsadida tashkil etilgandir. 2016-yildan boshlab qo'shimcha tanlov asosida PIRLS tizimi joriy qilingan bo'lib, u o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashga mo'ljallangan. Shuningdek, PIRLS dasturi o'quvchilar tomonidan mакtabda va maktabdan tashqari ta'lif olishning katta qismini tashkil etgan, ya'ni badiiy tajriba orttirish, axborot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi.



2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotda o'quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etish rejalashtirilganligini buning yaqqol dalilidir. Raqamli formatga o'tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan PIRLS onlayn o'qishni kompyuterda baholash kabi o'zgarishlar ko'zda tutilgan. Davlatlar PIRLS xalqaro dasturidan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar: global miqyosida ta'lif tizimi darajasidagi yutuqlarning tendentsiyalarini kuzatib borish, yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan ta'lif siyosatining ta'sirini kuzatib borish, ta'lifning zaif nuqtalarini belgilash va o'quv islohotini amalga oshirish, PIRLS ma'lumotlarini tadqiq va tahlil qilish orqali o'qitish va o'qishni takomillashtiriladi.

PISA – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) va bilimlarini amaliyatda qo'llash qobiliyatini baholovchi test bo'lib, 2000-yilda testlarda 32 ta, 2003-yil 43, 2006-yilda 57 davlat qatnashgan bo'lsa, 2015-yilda ularning soni 72, 2018-yilda esa 78 taga yetgan. Test sinovlariga har bir mamlakatdan 4 ming 500 dan 10 ming nafargacha o'quvchi jalg' etiladi.

PISA dasturida o'quvchilarning matematik savodxonligi 54 ta topshiriq (84 ta savol), o'qish savodxonligi 8 ta topshiriq (28 ta savol), tabiiy fanlardan 13 ta topshiriq (35 ta savol), shu yo'nalishlar bo'yicha o'quvchilarning kompetentliligi, muammolarni yecha olish ko'nikmalar 10 ta topshiriq (19 ta savol) yordamida aniqlanadi. Savollarning 50 foizi javobi tanlanadigan (test) bo'lsa, 12 foiz savollarning javoblari o'quvchi tomonidan aniq so'z yoki raqamlar vositasida ifodalanishi, savollarning qolgan qismiga o'quvchi erkin javob yozishi kerak. Ba'zi topshiriqlar aynan bir hayotiy vaziyatga doir, turli murakkablikka ega bir necha savoldan iborat bo'ladi. Testlar bir necha variantda tuziladi. Bunda bir guruhdag'i topshiriqlar bir necha variantga kiritilishi mumkin.

PISA standartlariga muvofiq, tadqiqot davriga mos ravishda 15 yosh-u 3 oylikdan, 16 yosh-u 2 oylikka to'lgan hamda yettinchi va undan yuqori sinfda o'qiyotgan o'quvchilar mazkur tadqiqot yoshidagi o'quvchilar hisoblanadi. Tajriba-sinov (Field trial) jarayoni 42 kalendar kuni hamda asosiy tadqiqotlar (Main survey) 56 kalendar kuni davomida amalga oshiriladi.

Dissertatsiya yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar jarayonida shu tushuncha aniq bo'ldiki, PISA baholash dasturi asosida ona tili va o'qish savodxonligini

baholash vositalari an'anaviy monitoring vositalaridan keskin farqlanadi. Bu borada Rossiya natijalari ham 2018-yilda bir oz yomonlashganligi ilmiy jurnallarda ta'kidlab o'tildi. Shuningdek, o'quvchilarning test sinovlarini baholash uchun yangi baholash formati (kompyuter platformasi) joriy qilinibgina qolmay, balki o'quvchilarga butunlay boshqa matnlar: ko'p o'lchovli matnlar, ziddiyatlarni aniqlash, nuqtayi nazarni yoki manbalar sifatini aniqlash kerak bo'lgan matnlar taklif etildi. Lekin matematika va tabiiy fanlardan Qozog'iston, Ozarbayjon va Gruziya kabi mamlakatlar ham dastlabki bosqichlarda yaxshi natija ko'rsatganlar.

TIMSS dasturi "Bilim yutuqlarini baholash" Xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ushbu tadqiqot 4 yilda bir marta o'tkaziladi. Shu kunga qadar 1995, 1999, 2003, 2007, 2011 va 2015-yillarda, 6 marta o'tkazilgan. 1995-yidan 3 marotaba (oxirgisi 2015-yilda) maktab bitiruvchilarining (Rossiyada 11-sinf, AQSHda 12-sinf) yutuqlarini aniqlashni o'z ichiga olgan holda kengaytirilgan tadqiqot ishlari (Advanced TIMSS) olib borilgan.

TIMSSda har 4 yil davomida 4- va 8-sinf o'quvchilarining nafaqat fanlarga bilim, balki ko'nikmalari hamda ta'limga yutuqlariga baho berib boriladi, ushbu fanlarga munosabati, qiziqishi va ta'limga bo'lgan motivatsiyasini solishtirish imkoniyatiga keltiradi. Tadqiqot o'tkazuvchi davlatlarda matematika va tabiiy fanlarning maktablardagi o'qitilish holati, mazkur ta'limga yo'nalişlarining mazmun-mohiyati, o'quv jarayoni hamda ta'limga muassasasi, o'qituvchilar, o'quvchilar, ularning oilalari bilan bog'liq omillar qo'shimcha ravishda o'rganiladi. Xalqaro test sinovlariga qo'shimcha sifatida tadqiqotda ishtirok etuvchi maktab ma'muriyati, o'quvchilar va o'qituvchilar so'rovnomadan o'tkaziladi.

STEAM - ta'limga o'quvchilarning ilmiy usullarni amalda qanday qo'llashni tushunishga kirishadigan aralash muhitni nazarda tutadi. Ushbu dastur bo'yicha o'quvchilar, matematika va fizika bilan bir qatorda, o'z ishlab chiqaradigan robotlarini asosiy qismlarini o'rganadilar hamda darslarda maxsus texnologik uskunalar ishlatiladilar. STEAM yondashuvi o'quvchilarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'limga yondashuvi o'quvchilarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda



birlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va keyingi o'qishni osonlashtiradi.

### Tadqiqot metodologyasi;

Oliy ta'limga kadrlar tayyorlashga barvaqt e'tibor qaratish, xalqaro talablarga mos ravishda ta'lim kontentlari, o'quv dasturlari, darslik-qo'llanmalarni yaratish, mavjud didaktik ta'minotni tubdan takomillashtirish o'qituvchilarining, eng birinchi navbatda, malakasini oshirish, ularga fanlar bo'yicha metodik yordam ko'rsatish masalalari bugungi kunnning eng dolzarb masalalariga aylanmoqda.

EGRA va EGMA - umumta'limga muktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini savodxonlik va hisoblash ko'nikmalarini baholashga mo'ljallangan ilmiy asoslangan modellarga tayanadi. Bugungi kunga qadar EGRA va EGMA baholash tadqiqotini 40 dan ortiq mamlakatda o'tkazib, to'plangan ma'lumotlar ushbu mamlakatlarga o'z o'quvchilarining o'qish va matematika bo'yicha asosiy ko'nikmalarini yaxshilashga yordam bergen. O'zbekiston bo'ylab 3- va 5-sinf o'quvchilarining o'qish va matematik ko'nikmalarini baholashga yordam beradi. Baholash ushbu fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish va shu fanlarni o'qitishga to'g'ri investitsiya kiritish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, PISA va PIRLS xalqaro tadqiqotlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun o'qituvchilar va ular ishlaydigan, foydalananadigan materiallarni tayyorlashga jiddiy e'tibor qaratiladi, buning uchun esa yangi o'quv materiallarini yaratish lozimdir.

Xalqaro tadqiqotlardagi natijalarini yaxshilash uchun o'qituvchilarini maqsadli tayyorlash va ta'limga jarayonida o'qitish metodikasining ustuvor tamoyillarini o'zgartirish zarur, bu uchun o'qituvchilarini tayyorlash, rivojlantiruvchi ta'limning faol tizimini tatbiq etishish va o'qituvchilarini ta'limga jarayonida yanada muvaffaqiyatli foydalana oladigan materiallar bilan ta'minlash kerak. PISAda ishtirok etish O'zbekistonga ko'plab imkoniyatlarni yaratadi. 2023-yilning oxirida PISA natijalarining e'lon qilinishi ko'plab davlatlarga xalqaro standartlar nuqtayi nazaridan tashqi baho berilishini ta'minladi. Masalan, Rossiya 2000-yildan beri xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etib kelmoqda va PISA bo'yicha bizning natijalar o'rtacha xalqaro darajadan past edi. Faqat 18 yil davomida ta'limga katta sarmoya



kiritish orqali PISA tadqiqtidagi natijalar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining o'rtacha ko'rsatkichlariga yaqinlashdi. Bu ko'proq fan natijalariga, ya'ni yosh avlodga yaxshi, chuqur va uzoq muddatli bilimlarni berishga e'tibor qaratganligi bilan izohlandi. O'quvchilar tomonidan turli hayotiy vaziyatlarda egallangan bilimlarni ishlatalishini baholash orqali ijodkorlikni rivojlantirishga erishildi.

Baholash natijalariga ko'ra yangi o'quv dasturlari, o'qitish uslubi va yondashuvlar O'zbekiston yoshlarining yaxshi natija ko'rsatishi uchun moslashtiriladi. Bu loyihalar o'quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish, layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi.

Dunyoda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv yutuqlarini xalqaro baholash tizimlaridan biri matnni o'qish va tushunish sifatini xalqaro tadqiqtasi PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) hisoblanadi. Mazkur tadqiqt dunyoning turli davlatlaridagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli matnlarni o'qish va tushunish darajasini baholash va taqqoslash hamda milliy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlaridagi tafovut va farqlarni aniqlash imkonini bergen. Mazkur tadqiqtida boshlang'ich ta'lif 4-sinf o'quvchilarining o'qish va matnni tushunish darajalari baholanadi. Tadqiqtida ishtirok etadigan maktablar ikkita parallel sinfi bo'lgan umumiyy maktablar orasidan maxsus metodologiya asosida kompyuter yordamida tasodifiy tanlanadi.


PISA va PIRLS kabi xalqaro tadqiqtalarga qo'yilgan eng muhim talablardan biri qiyosiy tahlil qilish imkonini beradigan topshiriqlardan foydalanish hisoblanadi, shu sababli topshiriqlarni shakllantirish jarayonida o'tgan yillarda foydalanilgan nazorat materiallari blokidan foydalanilgan. Shuningdek, asosiy e'tibor tadqiqt jarayonini standartlashtirishga qaratiladi. Bu jarayoni xalqaro koordinatsiya markazi nazoratida amalga oshirilib, tadqiqtning har bir bosqichi maktablarni tanlash, mavzularni tanlash, moslashtirish va tarjima qilish, testlarni o'tkazish, natijalarni tekshirish jarayoni xalqaro ekspertlar tomonidan to'liq nazorat qilinadi. Tarjimalar tekshirilib, maktablarda xalqaro kuzatuvchilar ishtirok etadilar. Ochiq

turdagi nazorat topshiriqlari ekspert o'qituvchilar tomonidan tekshirilgandan so'ng yana boshqa mutaxassislarni jalg etib, qayta tekshirib, natijalar taqqoslab ko'riladi.

PIRLS tadqiqoti jarayonida ikki turdagи o'qish baholanadi:

- adabiy o'qish tajribasini egallashga qaratilgan o'qish;
- ma'lumotlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish maqsadiga qaratilgan o'qish.

Tadqiqotning konseptual g'oyalariga asosan badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qish darajasini baholashda 4 turdagи o'qish ko'nikmalarini baholanadi. Ta'lim siyosatini va o'quv dasturlarini isloh qilish uchun turli darajadagi ballar bilan bog'liq bo'lgan kompetentsiyalarni tushunish muhimdir (*qarang 2-rasm*).



## 2-rasm. PIRLS xalqaro baholash dasturiga asosanlan o'qish ko'nikmaları.

Xalqaro baholash dasturida badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qish darajasini baholashda mazkur turdagи o'qish ko'nikmalarining amaliy jihatni



shundan iboratki, miqdor va sifat ko'rsatkichlari asosida quyidagi baholash tizimidan foydalaniladi:

- javobini tanlashga oid topshiriqlar uchun 1 ball;
- voqeа va hodisalarning ketma-ketligiga oid topshiriqlar va qarorlar uchun 1 ball;
- javobi yoziladigan ochiq turdagи konstruktiv xarakterdagi topshiriqlar uchun 1 ball;
- matnning strukturasi, tilga xos xususiyatlari, mazmunini baholash va tahlil qilishning qiyinchilik darajasiga ko'ra 1 balldan 3 ballgacha baholanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili va o'qish savodxonligi darslarida matnni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ko'p o'quvchilar ba'zi holatlarda beparvo va kam o'qiydilar, ular uchun o'qish zerikarli bo'lib qoladi, buning asosiy sababi: o'qishga bo'lgan qiziqishning umumiy pasayishi, kitoblardan tashqari ko'plab ma'lumot manbalarining mavjudligidir. Ammo ushbu jarayonning asosiy sababi hali ham o'qishni, o'qitishning nomukammalligi, o'quvchilarning o'qish faolligini maqsadli shakllantirish tizimining yo'qligidadir.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning bilimlarini baholashda qo'llangan savol, test va topshiriqlar ularning o'quv materialini qanday o'zlashtirayotganligini aniqlash orqali bilim, ko'nikmalar va malakalarini rivojlantirishga erishiladi. O'quvchilarning savodxonligini aniqlashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi doirasida ularning bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, fikrlash va ona tilida erkin muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratiladi. Shu bilan birga, bu hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi, targ'ib qilmaydi va umumiy e'tirof etishni taqozo etmaydi.

PISA dasturining nazariy jihat shundaki, a'zo mamlakatlarni ta'lim siyosatiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash, qarorlar qabul qilishda ularni qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'ladi. Tadqiqotning har uch yilda o'tkazilishi mamlakatlarga siyosiy qarorlar va tegishli dasturlarning ta'sirini hisobga olish uchun ma'lumot va tahlillarni ichiga olgan holda o'z vaqtida axborot berish imkoniyatini yaratadi. Jumladan, mamlakatlar bu davr davomida o'z ta'lim tizimida kelajakda erishishi ko'zda tutilgan maqsadlarni aniqlab olishiga imkon beradi.

PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlarini tatbiq qilishda undagi tanlangan matnlar o'quvchilarda to'g'ri o'qish me'yorlarini shakllantiradi hamda ona



tilining o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, o'qigan materialini qaysi darajada tushunganligini bilish imkoniyatini beradi. Matnlarni tanlashda o'quvchining yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olish tavsiya etiladi.

Mazkur xalqaro baholash dasturlarida kontekstlar ham alohida ahamiyatga ega. Kontekstlar - PISA topshiriqlarining asosi sanaladi. Kontekst - bu hayotiy muammoli vaziyatlar aks etgan topshiriqlar bo'lib, o'z navbatida, ular shaxsiy, mahalliy va milliy (global) darajalarga bo'linadi. Mazkur jihat shaxsiy, mahalliy va global muammolarga doir o'quvchilarining fikrlari o'rganilishi hamda taqqoslanishini ifoda etadi.

PISA topshiriqlari darajalarini aniqlashda topshiriqnini bajarish uchun talab etiladigan intellektual fikrlash qobiliyatiga ko'ra ular uchta kognitiv darajaga ajratiladi:

1. Quyi daraja – bir bosqichli amallar;
2. O'rta daraja – hodisalarni tavsiflash;
3. Yuqori daraja – murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish.

PIRLS va PISA xalqaro baholash dasturlarini tatbiq qilishda undagi tanlangan matnlar o'quvchilarda ona tilida to'gri so'zlashish qoidalarini, muloqotga kirisha olish va o'qish me'yorlarini egalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'qigan materialni qaysi darajada tushunganligini bilish imkoniyatini beradi. Mazkur xalqaro baholash dasturlari ta'limda noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanishni talab etibgina qolmay, darslarning samaradorligini oshiradi hamda quyidagi ta'limiy yutuqlarga erishishni kafolatlaydi:

- o'quvchilarga mustaqil fikrlashni o'rgatish;
  - bilimlarni o'zlashtirishga yordam berish;
  - darsning samaradorligini oshiradi;
  - o'quvchilarining ona tili xususiyatlarini kengroq bilish darajasini kengaytirish;
  - tafakkurni rivojlantirish;
  - o'quvchilarining matnni tushunish ko'nikmasini shakllantirish;
  - ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotirani kuchaytirish;
  - matn bo'yicha axborotlarni tahlil qilish;
  - o'quvchilarни o'z ustida ishslashga erishish.


Pirovardida o'quvchilarda ona tili savodxonligini oshirish va o'qish orqali kommunikativ ko'nikmalarni shakllanishi, muloqotga kirishish hamda nutq madaniyatini rivojlanishiga erishiladi.

Mamlakatlarning rivojlanishi zamonaviy iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lism dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqilishiga ko'p

Yuqorida ko'rsatilgan natijalarga maktab o'quvchilarini tafakkur sa'y-harakatlariga o'rgatishda ikkita faoliyatli o'qitish nazariyasi keng qo'llanishga ega boladi: maktab o'quvchilarini intellektual salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish nazariyasini ishlab chiqadi. Bu nazariyaning bosh g'oyasi bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilar tomonidan faqat ma'lum sa'y-harakatlar tizimi bajarilishi natijasida yuzaga keladi. Ikkinchisi: sa'y-harakat o'z ustida bajarilayotgan predmet bilan funksional bog'langan, o'z ichiga mazkur predmetni o'zgartirish maqsadini va bunday o'zgartirish vositasini oladi. Bularning barchasi birgalikda shakllantirilayotgan sa'y-harakatning ijro qismini tashkil etadi. Demak, o'quvchilarda oddiy xulosalar bilan birga, matndagi g'oyalari va axborotlarni talqin qilish, uyg'unlashtirish, bog'lay olish ko'nikmalari rivojlanib boradi degan xulosaga kelish mumkin.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli Qarori.
2. Международная программа по оценке образовательных достижений учащихся PISA (Электрон. ресурс). – режим доступа <http://www.centeroko.ru/pisa15/pisa15.html>
3. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo'llanma. –T.:2019.6-7 bet.
4. Результаты международного исследования PISA-2015. (Электрон. ресурс). доступа [http://www.centeroko.ru/pisa15/PISA 15\\_res.htm](http://www.centeroko.ru/pisa15/PISA 15_res.htm).
5. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo'llanma. –T.:2019.7- bet  
[Gazeta.uz/oz/2020/09/14/education/](http://Gazeta.uz/oz/2020/09/14/education/)
6. M. Ahadov. Kimyo fanidan xalqaro baholash dasturlari PISA va PIRLS: nazariya va amaliyat. Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar. Konferentsiya materiallari. 2023. 28-bet.



7. Э.Винокурова. PIRLS, TIMSS, PISA – что за исследование, что которых участвуют школьники из Россия. [https://mel.fm/ucheba/fakultativ/9058732-all\\_tests](https://mel.fm/ucheba/fakultativ/9058732-all_tests).
8. Гвоздок Л.В. Развитие и оценка функциональной грамотности школьников на основе международных исследований PISA, PIRLS. 2015. [funktionalnaya\\_gramotnost.doc](#)